

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Ottawa Canada on December 10th, 2022.

www.conferencezone.org

QUYONLARNI OZIQLANTIRISH

Erkinova Latofat Umidjon qizi

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali tayanch doktoranti

latofat.erkinova.94@gmail.com

Abdullayeva Gulbohor Tolibjonovna

I.Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti v.b. professori, b.f.d.

Xidirov Karim Imamnazarovich

Quyonchilik seleksiyasi va genetika markazi direktori

Annotatsiya.

To‘yimli ozuqalar quyonlar bosh sonini ko‘paytirish, ularning mahsuldorligini oshirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Ozuqa energiyasi yetishmasa quyonlarning mahsuldorligi pasayadi, ular oriqlaydi, yosh quyonlar o‘sishi sekinlashadi yoki to‘xtaydi, nasldorlik pasayadi, urg‘ochi quyonlarni kuyikishi, bola berishi kamayadi. Shuningdek, jinsiy yetilishi kechikadi.

Kalit so‘zlar: Ratsion, vitamin, aminokislotalar, probiotiklar, oqsillar, makroelementlar, mikroelementlar.

Quyonlar turli xil ozuqalarni iste’mol qilgani uchun, ularni har xil sharoitda boqish uncha qiyinchilik tug‘dirmaydi. Biz ayrim ozuqalarga to‘xtalib o‘tamiz. Ko‘k ozuqalar. Asosan bahorda, yozda va kuz faslida beriladi. Ular quyidagilar: ko‘k beda, makkajo‘xori, qoqio‘t, qo‘ypechak, poliz ekinlarining palagi, sabzavotlarning bargi, daraxtlarning bargi va novdalari, xomtok qilingan tok barglari va hokazo. Ko‘k bedaning ahamiyati juda katta bo‘lib, u vitamin va proteinga boydir. O‘zbekiston sharoitida quyonlarni ko‘k ozuqalar bilan 6 oydan ortiqroq boqish imkoniyati bor. Ularni quyonlarga chala quritilgan holda berish tavsiya etiladi. Pichan. Bu ozuqa asosan qish faslida beriladi. Arpa, suli, tariq va bug‘doy somonlarini berish mumkin. Uning to‘yimliligi past bo‘lishiga qaramay quyonlarda hazm qilish jarayonini faollashtiradi. Quyonlar uchun ayniqsa, o‘tloq va beda pichani foydalidir. Shirali ozuqalar. Bu guruhga ildizmevali o‘simliklar va silos kirib, ularni pichan yoki yem bilan birga beriladi. Quyonlar uchun sabzi

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Ottawa Canada on December 10th, 2022.

www.conferencezone.org

eng yaxshi oziqdir. Quyonlarga silosni oz-ozdan berib, asta-sekin o'rgatiladi. Konsentrat ozuqlar. Bu guruhga donlar va kombikormlar kiradi. Quyonlar sulini sevib yeydi, lekin suli O'zbekiston sharoitida kamroq o'stiriladi. Uning o'mniga arpa berish mumkin. Arpani quyonlarga berishdan oldin yorma holiga keltiriladi. Bug'doy kepagi ham quyonlar uchun sevimli ozuqa bo'lib xizmat qiladi. Uni quyonlarga berishda namlangan yoki shirali oziqlarga aralashtirilgan holda yediriladi. Omixta yemni quyonlarga alohida bermasdan, balki pichan uniga, maydalangan xashaki lavlagiga, pishirilgan kartoshkaga yoki silosga qo'shib beriladi. Quyonlarga turli ozuqalarni berish bilan birga, ularni sug'orib turishni ham unutmaslik kerak. Quyonlar suvni ko'k va shirali ozuqlar yeganida kam, issiq kunlari va yem berilganda ko'p ichadi. Katakda har doim suv bo'lishi va uni har kuni 2-3 marta yangilab turish zurur. Quyonlarga ozuqlar tartibsiz ravishda emas, balki qat'iy tartibda, ratsion asosida berilishi kerak. Quyonlar uchun belgilangan qat'iy rejimga ko'ra ular ma'lum Quyonchilik bir soatda, bir kecha-kunduzda uch marta oziqlantiriladi. Oziqning ko'proq qismi kechqurun beriladi, chunki quyonlar ko'proq kechasi ovqatlanadilar. Ertalab konsentratlar va suv, yozda esa ko'k ozuqlar, qish faslida esa ko'proq pichan bilan boqiladi. Kechqurun shirali ozuqlar beriladi. Sabzavot va ildizmevali ozuqalarni berishdan oldin ular yaxshilab yuvib tozalanadi va maydalab beriladi. Quruq, maydalangan ozuqlar, masalan, kepak, donning yormasi namlab beriladi, chunki ular quyonlarning nafas yo'llarini ta'sir qiladi va bezovta qiladi. Pichan va ko'k ozuqalarni maydalamay berish mumkin. Uzoq saqlanib qolgan yoki qizigan ko'k ozuqalarni quyonlarga berib bo'lmaydi, bunda ular zaharlanishi mumkin. Shunga ko'ra o'rib kelingan ko'k ozuqlar biroz yoyib selgitiladi, so'ngra beriladi. Yomg'ir yoqqanidan keyin yoki shudringda o'rilgan ko'k oziqni yedirish zarur bo'lsa, uni biroz quruq pichanga aralashtirib berish kerak. Qish faslidan chiqqan paytda quyonlarni ko'k oziqqa o'tkazishda ham quruq pichanga ko'k ozuqlar aralashtirib berish lozim. Aks holda quyonning ovqat hazm qilish tizimi buzilib, qorni shishadi va ichi ketishi mumkin. Qish faslida esa quyonlarga muzlagan ozuqalarni bermaslik kerak. Agar katakda muzlab qolgan sabzavotlar qoldig'i bo'lsa, ularni olib tashlash kerak. Ho'l ozuqalarning katakda muzlab qolishiga yo'l qo'ymaslik uchun ularni oz-ozdan berish kerak. Quyonlar aslida zaharli ko'k ozuqalarni yemaydilar, shuning uchun ulardan ehtiyyot qilish zarur. Zaharli o'tlar qatoriga ituzum, ayiqtovon, qoncho'p, digitalis, zangpoya, sariqbosh o't, sutlama

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Ottawa Canada on December 10th, 2022.

www.conferencezone.org

o‘t, qarg‘ako‘z, piyozli o‘simpliklar, kartoshka va pomidor palaklari kiradi Quyonlarni semirtirish uchun boqayotganda ularga o‘tkir hidli o‘simpliklardan bermaslik kerak (masalan, yovvoyi piyozi, baliq yoki suyak uni), chunki quyonning go‘shtidan hid kelib qoladi. Kasal quyonlarga parhez ozuqalar berib turilishi lozim. O‘z vaqtida yig‘ib olingan maydaroq sifatlari pichan, dukkakli o‘simpliklar pichani, don yormasi, ozroq sut yoki sut mahsulotlaridan parhez ozuqalar sifatida foydalanish mumkin. Katakdada doimo suv bo‘lishi kerak. Bolali ona quyonlarga suvni qish vaqtida ilitib berilishi zarur. Bo‘g‘oz quyonlarni boqishga alohida e’tibor berish kerak. Ularning ratsioni “tinim” davridagiga nisbatan bo‘g‘ozlik davrining boshida 30 foizga, oxirrog‘ida esa 70 foizga ko‘paytirilishi kerak. Urg‘ochi quyon bo‘g‘ozlik davrida kalsiy moddasini ozuqadan ikki marta ko‘p o‘zlashtirish qobiliyatiga ega, shuning uchun kalsiyni kunlik normasiga nisbatan 1,5-2 marta ko‘paytirib berish tavsiya etiladi. Bola emizish davrida ona quyonni ozuqaga bo‘lgan talabi ortadi. Ozuqaga bo‘lgan talab emizish boshlanish davrining dastlabki 15 kunida 2 marta, o‘rtalarida 3 marta va sutdan chiqishiga yaqin 4 martagacha ortishi tajribalarda isbotlangan. Quyonga ratsion tuzayotganda uning fiziologik holati (tinim, bo‘g‘ozlik davri, qochirishga tayyorlash, bola boqishi, semirishi), fasllar (yozi, kuz, qish, bahor), ozuqaning turlari va sifati albatta hisobga olinishi zarur. Quyonlarning oziqlanishida oqsilning ahamiyati juda katta. Ular o‘simplik oqsilini hazm qilib, o‘z oqsillarini hosil qiladilar. Oqsillar biologik xususiyatlariga qarab, guruhga ajratiladi. Birinchisi faqat hayvon to‘qimasida uchraydi, ikkinchisi o‘simpliklarda va uchinchisi esa hayvonda ham, o‘simplikda ham uchraydi. Oqsillar ozuqaning hazm qilish davrida aminokislotalargacha parchalanadi, ular o‘z navbatida ikki guruhga ajratiladi: almashtirish mumkin va mumkin bo‘lmagan aminokislordan iborat. Almashtirib bo‘ladigan aminokislolar organizmda sintez qilinishi mumkin. Ozuqa bilan kirganlari uni to‘ldiradi. Ozuqada bu guruh oqsilning kam bo‘lishi yoki butunlay bo‘lmasligi ham endogen (ichki) sintez yo‘li bilan organizmda o‘rnini to‘ldiradi. Almashtirib bo‘ladigan amniokislotalarga alanin, sistin, gilitsin, glutamin, aspargin kislota, serin, prolin, tirozin kiradi. Almashtirib bo‘lmaydigan aminokislolar organizmda sintezlanmaydi yoki sintezlansa ham organizmning talabini to‘liq qondira olmaydi. Ular qatoriga valin, leysin, izoleysin, lizin, metionin, fenil alanin, treonin, triptofan, arginin va gistidin kiradi. Shuning uchun almashtirib bo‘lmaydigan aminokislota ozuqa bilan organizmga kirib turishi

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Ottawa Canada on December 10th, 2022.

www.conferencezone.org

shart. Ozuqa ratsionida almashtirib bo‘lmaydigan aminokislota miqdorining bo‘lmasligi yoki juda kam bo‘lishi quyonlarning o‘sishiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, turli fiziologik funksiyalarning buzilishiga sabab bo‘ladi. Chunonchi, azot balansi buziladi, ishtahasi yo‘qoladi, jinsiy faoliyatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi va ozib ketadi.

Ozuqalar tarkibining ahamiyati To‘yimli ozuqalar quyonlar bosh sonini ko‘paytirish, ularning mahsuldorligini oshirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi. Ozuqa energiyasi yetishmasa quyonlarning mahsuldorligi pasayadi, ular oriqlaydi, yosh quyonlar o‘sishi sekinlashadi yoki to‘xtaydi, nasldorlik pasayadi, urg‘ochi quyonlarni kuyikishi, bola berishi kamayadi. Shuningdek, jinsiy yetilishi kechikadi. Makkajo‘xori 10 g, Bug‘doy 10 g, Arpa 40 g, Sabzi 25 g, Karam 15 g, Beda 50 g Quyonlarni to‘yimli ozuqalar bilan oziqlantirish deganda, ozuqa ratsioni hayvonlar organizmi talabini to‘liq ta’minlashi, ozuqada har xil to‘yimli va biologik aktiv moddalar zarur miqdorda bo‘lishi tushuniladi (oqsil, karbon suvlar, yog‘lar, makro va mikroelementlar va vitaminlar). Mineral moddalar quyonlarda modda almashish jarayonida faol ishtirok etib, bufer tizimining paydo bo‘lishida juda zarurdir. Quyonlarni yashash faoliyatida kalsiy, fosfor, natriy, kaliy, magniy, xlor, oltingugurt, temir va boshqalarning ahamiyati kattadir. Yosh o‘sadigan quyonlar ratsionida mineral moddalar yetishmasa o‘sish va rivojlanishi sekinlashadi, darmonsizlanadi, organizmning har xil kasalliklarga nisbatan chidamliligi pasayadi. Katta yoshdagи quyonlarda tirik vazni kamayadi, nasldorligi pasayadi, o‘lik yoki nimjon tug‘ish yoki bola tashlash hollari kuzatiladi. Uzoq vaqt davomida hayvonlar mineral moddalar yetishmaydigai ozuqalar bilan boqilsa, mahsuldorligi kamayadi. Ona quyonlar ratsionida mineral moddalar yetishmasa o‘z bolalarini yeydi. Mineral elementlar quyon organizmida oz yoki ko‘p uchrashi bo‘yicha ular 2 guruhga bo‘linadi. 1. Makroelementlar. Hayvon tanasida ko‘p uchraydigan elementlar bo‘lib, ular 1 kg ozuqa tarkibida gramm hisobida o‘lchanadi. Ularga juda ko‘p elementlar kirib, hayvonlarning oziqlanishida kalsiy (Ca), fosfor (P), natriy (Na), kaliy (K), xlor (Cl₂), magniy (Mg), va oltingugurt (S) larning ahamiyati kattadir. Kalsiy va fosfor quyonlar organizmi tarkibining 60–80 foizini yoki og‘irligining 2 foiziini tashkil etadi. Ular avvalo suyak to‘qimalarini tuzilishiga, nerv tizimi faoliyatiga, yurakni bir maromda ishlashiga, qonning ivishiga va boshqalar uchun zarurdir. Bundan tashqari fosfor muskullarni qisqarishi va ichaklarda karbonsuv va yog‘larni

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Ottawa Canada on December 10th, 2022.

www.conferencezone.org

shimilishida ishtirok etadi. Yosh quyonlar ratsionida kalsiy, fosfor va vitamin D yetishmasa raxit, katta quyonlarda esa osteoporoz va osteomalyatsiya kasalligini chaqiradi. Natriy va xlor osh tuzi tarkibida bo‘lib, quyonlar uchun juda zarur. U ishtahani ochadi va ozuqalar ta’mini yaxshilaydi. Natriy va xlor yetishmasa organizmda osmotik bosim buziladi, ozuqadagi yog‘ va oqsillar yomon hazm bo‘ladi, quyonlar ishtahasi pasayadi, markaziy asab tizimi tez charchaydi. O‘simpliklardan tayyorlangan ozuqalarda kaliy ko‘p, natriy kam bo‘ladi. Shuning uchun quyonlarga qish va yozda osh tuzi berilishi kerak. 2. Mikroelementlar. Hayvonlar tanasida oz miqdorda, lekin juda zarur bo‘lgan elementlar mikroelementlar deyiladi. Organizm uchun zarur bo‘lgan mikroelementlar qatoriga temir, rux, mis, marganes, yod, kobalt, molibden va selenlar kiradi. Temir organizm to‘qima yadrosining xromatin moddasi va qonning gemoglobinini tarkibiy qismi hisoblanadi. Temir oz miqdorda bo‘lsa ham quyonlar uchun zarur. O‘sadigan va bo‘g‘oz quyonlarni temirga bo‘lgan talabi yuqori. Ratsionda temir yetishmasa gipoxromli anemiya kasalligi ko‘payadi. Hozirgi kunda quyonlar va mo‘ynali hayvonlarda alimentar anemiya kasalligining oldini olish maqsadida temir birikmalari (ferroglyukin, glitserofosfatli temir, ferrodeks va boshqalar) beriladi. Organizmdagi mavjud makroelementlarni 0,4 foizini mikroelementlar tashkil etadi. Organizmda ularni tarqalishi bir xil emas. Mikroelementlarning asosiy deposi-qon, jigar, muskullar va miya hisoblanadi. Ba’zi bir mikroelementlar ichki sekresiya bezlarida ham yig‘iladi. Jumladan, yod qalqonsimon bezda, rux gipofiz, urug‘don, tuxumdon va oshqozon osti bezida, kobalt qalqonsimon bez va oshqozonosti bezida, ftor tishning emali va urug‘donda to‘planadi. Quyonlar uchun tuproq, tabiiy suv va o‘simpliklar mikroelementlar manbai hisoblanadi. Quyonlar organizmidagi juda ko‘p mikroelementlardan (50 dan ortiq) amaliy ahamiyatga ega bo‘lganlari yod, kobalt, mis, marganes, rux, selen va boshqalar hisoblanadi. Yod yetishmasa quyonlarda bo‘qoq yoki gipotereoidoz, kobalt yetishmasa gipokobaltoz, xavfli anemiya va oriqlash holatlari kuzatiladi. Mis yetishmasa qon ishlab chiqarish buziladi, ta’m, ishtaha pasayadi, oshqozon-ichak yo‘llarining yallig‘lanishi, orqa oyoq paralichi, jun o‘sishini o‘zgarishi va oriqlash holati kuzatiladi. Ratsionda vitamin yetishmasligidan keladigan asoratlar. Quyonlarni to‘yimli ozuqalar bilan ta’minlashda vitaminlar alohida ahamiyatga ega. Ular xuddi mikroelementlardek modda almanishida asosiy rol o‘ynaydi,. Gipo va avitaminoz quyonchilikka juda

Proceedings of International Congress on “Multidisciplinary Studies in Education and Applied Sciences”

Hosted Online from Ottawa Canada on December 10th, 2022.

www.conferencezone.org

katta iqtisodiy zarar yetkazadi: quyonlar bola tashlaydi, o'sish va rivojlanishdan qoladi, yosh quyonlar o'ladi, organizmning yuqumli kasalliklarga chidamliligi nisbatan pasayadi.

Probiotiklar. O'zining biologik xossalari tufayli probiotiklardan quyonchilikda keng foydalaniladi. Probiotiklar quyidagi hollarda qo'llaniladi: quyonlarda ovqat hazm bo'lishi, moddalar almashinushi va mahsuldarlikni yaxshilashda, ishlab chiqariladigan mahsulotlarning ekologik xavfsizligini ta'minlashda. Probiotiklarning muhim afzalligi ularning quyonlar tomonidan to'liq qayta ishlanishi, mahsulotning iste'molchilari va atrof-muhit uchun zararli salbiy oqibatlarining bo'lmasligi hisoblanadi. Probiotik preparatlardan foydalanish quyonlarda metabolik jarayonlarning optimallashuvi, xo'jayin organizm uchun hayotiy muhim hisoblangan oziq moddalarning yaxshi o'zlashtirilishiga, uning immun maqomining faollahuvi va atrof-muhitning noqulay omillariga chidamlilagini oshirishga yordam beradi. Yangi tug'ilgan quyon bolalari probiotiklar bilan boqilganda, ular ishtahasi yaxshilanib, tana og'irligining o'rtacha sutkalik o'sishi oshadi. Quyonlarni yetishtirishda probiotik preparatlar granulalangan quruq yemga qo'shiladi. Preparatning dozasi hayvonning yoshiga bog'liq bo'lib, bitta sut emadigan quyonchaga probiotiklar 25 mln m.t dozada, katta yoshdagi quyonlarga esa 50 mln m.t dozada 7-14 kun interval bilan beriladi. Probiotiklarning qo'llanishi mahuldarlikni, quyonlarning tiriklik davrini va go'sht vazni, teri, go'sht sifatini oshiradi. Quyonlarda eymerioz kasalligi nisbatan kuzatilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, quyonlarni sifatli ozuqa bilan boqish ularni sog'lig'iga, yaxshi o'sib rivojlanishiga, tez semirib yetilishiga zamin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A.X. Xolmatov "QUYONCHILIK". "Agrobank" ATB – 2021.Nashriyot uyi "Tasvir" – 2021.
2. Adilova A., Xolmatov A. "Fermer xo'jaligida quyonchilik" O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali. № 11. 2010.
3. Amanturdiev G.B. "Quyonchilik" fanidan amaliy mashg'ulot. Toshkent: 2000.
4. Dolimov Sh.Z Tomorqa xo'jaligida quyonchilik. Toshkent: 2008.
5. Ballasov U.Sh., Mamatiminov Sh.K. "Quyonchilik" fanidan o'quv qo'llanma. ToshDAU. Toshkent: 2016.